

IJTIMOIY TARMOQDAN FOYDALANISHNING FIQHIY ASOSLARI

Mamaziyayev Sodirjon Sodiqjon o'g'li
Oriental unversiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada islom huquqiga oid manbalar orasidan ijrimoiy tarmoqlar fiqhiga oid asarlar tahlil qilindi va ulardagi hukmlar solishtirib chiqildi. Xususan Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf faoliyati va u zotganing qalamiga mansub asar asosiy manba sifatida tanlab olindi. Fiqhiy mabalar orasidan Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning muallifligidagi asarlar bir qancha bo'lsada, ular orasidan aynan o'zida zamonaviy fiqhiy masalalarni qamrab olgan "Ijrimoiy odoblar" asari o'rganildi.

Kalit so'zlar: Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Fiqh, Odob, Ijtimoiy tarmqlar masalalar

Uyali aloqa vositalarini ham harid qilishda musulmon niyatni to'g'rilab olishi zarurdir. Sababi bu aloqa vositasi menga nima uchun kerak v anima maqsadda foydalanaman degan savolni bermog'ligi zarurdir. Agar bu qurilma menga foyda keltiradigan bo'lsa va ilm olishimga halal bermasa gunoh masiyatga chorlamasa olmog'liz darkor. Agarda bularning aksi bo'ladigan bo'lsa bu telefondan vozkechmoqlik unga vojibga aylanadi. Shuning uchun ham Alloh taolodan duo qilib so'rash kerak va niyatni holis qilmog' zarurdir.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish odobi bilan bir qatorda turadigan masalalarda biri bu – aloqa vositalardan foydalanish va odoblari desak ham bo'ladi. Chunki ijtimoiy tarmoqlardan avval bu aloqa odoblarini yo'lga qo'ymasdan ijtimoiy maslalarni ham to'g'irlab bo'lmaydi, huddi-ku Islohni boshidan boshlash kerak ya'ni aloqa vositalaridan qanday foydalanish va qayerlarda foydalanish mumkin qayerlarda foydalanish muki emas.

Shu kabi odob-axloq qoidalarini ham o'rganishlik musulmon uchun hosdir¹.

Avvalo musulmon inson o'ziga ravo ko'rmagan narsasini boshqa birodariga ham ravo ko'rmaydi. Xalqimiz orasida bir maqol bor " pichoqni avval o'zinga ur, og'rimasa boshqaga" degan gap huddiki hozirda bo'layotgan vaziyatga aytilgandek. Bir inson boshqa bir insonni telefoni qoliga tushib qolsa uning iznisiz uni ochib ham ko'rmasligi zarurdir. Chunki uning ozining shaxsiy ma'lumotlari, rasmkari, habarlari va hakoazolari bo'lishi mumkin. Lekin hozir biz nima qilyabmiz yaqin insonimizning mabil qurilasi qo'limizga tushib qolishi bilan undan unumli foydalanib uning ruhsatisiz telefonini boshidan kirib oxiridan chiqib ketyabmiz.

Aslida bu musulmon uchun hos bo'lmagan odat va bu kabi holatlar musulmon

¹ Mirzayev A. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tasdiqlagan. – T.: Toshkent davlat texnika universiteti, 2000. – B. 328.

jamiyatida juda ham ko'p uchrab turibdi. Xattoki umuman begona bo'lgan insonlar o'rtasida ham bunday holat kuzatilib turibdi. Shunday holatlar xattoki oilalarning buzilib ketishigacha ham davom etmoqda.

Misol uchun o'z razilligi yolidan qaytmaydigan inson kimnidir telefonidan beruhsat su'ratlarini yuklab olib yoki ijtimoiy tarmoqlarga joylangan su'rat ruxsatsiz mantaj qilib ya'ni o'zgartirib xuddiku behayo obrizga kimgazib undan mo'maygina pul ham talab qilish holatlari ham uchrab turibdi. Bundan ham boshqa holatlarga e'tibor beradigan bo'lsak ya'ni Shayx hazratlari Muhammad Sodik Muhammad Yusuf aytganlaridek: O'zbekiston xalqi orasida tuzilgan oilalarning buzilishining 20% sabab bu telefondir².

Baloninng sababchisi bu telefondir degan gap bejiz emasdir. Yangi qurilgan oilalarning buzilib yoki qurilmasidan ya'ni nikohga ham yetib bormasligini asosoy sabablari ham bu telefon hisoblanadi. Yangi qurilmoqchi bo'lgan oila hali nikoh bo'lmasidan avval tunlari bilan bir-birlariga nomahram holatda kehalri bilan gaplashib tun o'tkazishlari va bir-birlaridan erta sovib qolish holatlari uchrab ham turibdi. Yoki bo'lmasam avval gaplashib yurgan yigitiga turmushga chiqmagan qizlar boshqa yigitga turmushga chiqqandan keyin ham eski "mashuqasidan" ko'ngil uzolmasdan tunlari habar yozishib keyin esa qo'lga tushib qolayotgan voqealar ham juda ko'p uchramoqda, bunga nima sabab deb qaralsa aslida Islomiy tarbiya va shu bilan birga aloqa vositalaridan foydalanish odoblarini ham bilmasligini sezish mumkin³.

Aloqa odoblari faqat shukabi holatlarmi deyilsa aslo bundan ham boshqa nozik holatlar ham mavjud. Bu holatlar: masjidalarda aloqa vositalaridan foydalanish, biror bir insonni uning ruhsatisiz suratga olish va uni tarqatish, biror bir shaxs telefonda gaplashayotgan bo'lsa lekin unga qayta qayta qo'ng'iroq qilib bezovta qilsa yoki telefon qilgan vaqtda habariga javob beraolmasa birgina qo'ng'iroqdan keyin qayta qilmaslik holati, yoki shunga o'xshash holatlardan yana biri ikki musulmon inson bir-biri bilan muloqat vaqtda uyali aloqa vositasi jiringlab qolsa yonidagi shaxsga bee'tiborlarcha telefonda gaplashib ketish holatlari juda ham jamiyat orasida uchrab turadigan holat hisoblanadi va bu orqali ikki musulmon o'rtasida bir-biriga hurmad yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Bu ham uyali aloqa vositalaridan foydalanish odoblaridan behabar ekanligimizga dalolat beradi⁴.

Yoki bo'lmasa masjidlarda va ilm anjumanlarida, darslarda telefondan foydalanish holatlari haqida gapiradigan bo'lsak: Barcha masjidlarda uchratganmiz "uyali aloqa vositalaringizni o'chirib qo'ying" deb yozilgan yozuvlarga bu yozuvlar bejiz emas chunki doim namoz vaqtda kimningdir telefoni jiringlab hammani hushusini oladi va hammani o'ziga tortadi. Ba'zi holatlarda imomning adashtirish holatlari ham uchrab turadi. Bunday holatda avvalo namozga kirishdan dunyo

² Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. Toshkent. Hilol nashr. 2012.- B. 456.

³ Anvar qori Tursunov bilan suhbatdan

⁴ Anvar qori Tursunov bilan suhbatdan

tashvishlarini unutib telefonlarni ovozsiz holatga keltirib keyin kirgan yaxshi, lekin hayol bilan yoki shoshib namozga kirilsa va telefon namoz vaqtida jiringlab hammani o'ziga tortsa shunda nima qilinadi degan savol kelib chiqadi? Agar namoz vaqtida 3 marttadan ortiq qimirlash holatida namoz buziladi demak bunda telefonni ovozini o'chirishga ham shuncha harakat kerak bo'ladi va bunda namoz buzilishi mumkin shunda nima qilinadi? Bunda agar ovozi hammani chalg'itadigan darajada baland bo'lib halal bersa demak kata hafni oldini olish uchun telefonni ovozini o'chirgan yaxshi deyishadi ulomolar⁵.

Islom – taraqqiyot dini. Ulamolarimiz hayotda paydo bo'ladigan yangi odatlar, holatlar, shuningdek yangi texnologiyalar orqali yuzaga keladigan vaziyatlarga ham Islom fiqhi qoidalariga asoslanib, o'z fikrlarini bayon qilishadi. Hozirgi paytda ko'pchilik ehtiyoj sezayotgan odoblardan biri musulmonning mobil aloqadan foydalanish madaniyatidir. Bu haqdagi fikrlaringiz.

Katta ustozimiz aytgandilar. Imom Ahmaddan rivoyat qilingan rivoyatda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam kovushlarini quloqlariga qo'yib, «ummatlarim ishlarni shunday bajaradilar», deb aytgan ekanlar. Demak, ushbu yangilikni ham Payg'ambar alayhissalom bashorat qilgan ekanlar⁶.

Har qanday texnologiyadan yaxshi niyatda ne'mat sifatida foydalanish mumkin. Har birining boshqaruvi o'z qo'limizda. U televizor bo'ladimi, kompyuter bo'ladimi, uyali telefonmi, yaxshi niyatda foydalansak, ikki dunyomiz uchun ham foyda topamiz. Aks holda shiddat bilan rivojlanayotgan texnologiya insonning tanazzuliga sabab bo'lishi ham mumkin. Yoshlarimizni ana shunday tahdidlardan himoya qilish uchun avvalo oilada bunday ma'siyatlarga qarshi tamyiz (immunitet)ni shakllantirish lozim. Hozirda g'arbda «ommaviy madaniyat» nomi bilan «insonning erkinligini cheklab bo'lmaydi, u istaganini qilishga haqli» shiorlarini olg'a surib, ma'naviyatni yakson qilishga bo'lgan intilishlar kuchaymoqda. Lev Tolstoy «Erkinlik avvalo mas'uliyatdir» deb ta'kidlagan. Mas'uliyatsiz inson hayvondan ham past turadi⁷.

Alloh taolo bizga ato etgan ne'mat o'laroq foydalanish lozim bo'lgan uyali aloqa telefonlardan o'zlarining g'arazli maqsadlarida yoshlarning ma'naviyati, e'tiqodini buzishga undovchi vosita sifatida foydalanayotganlar ham bor. Ularning bu aldovlariga uchmaslik uchun farzandlarimizni yoshliklaridan dinimizga, ma'naviy qadriyatlarimizga muhabbat ruhida tarbiyalashimiz lozim.

Texnologiya rivojlanishi bilan insonlarning turli aloqa vositalari orqali muloqot qilishlari kundalik holatga aylandi. Muloqot avvalo salomdan boshlanadi. Aynan shu nuqtada bir qancha tushunmovchiliklar yuzaga kelmoqda. Siz kimgadir qo'ng'iroq qilib, «Assalomu alaykum» deysiz, u esa «Va alaykum assalom» degan farz javob o'rniga, yana sizga «Assalomu alaykum» deydi. Radio va ba'zi TV muloqotlarida ham

⁵ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. Toshkent. Hilol nashr. 2012.- B. 146.

⁶ Anvar qori Tursunov bilan suhbatdan

⁷ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. Toshkent. Hilol nashr. 2012.- B. 256.

shu holat kuzatiladi. Ko‘pincha alik olinmasdan, ikki tomon bir-biriga «Assalomu alaykum» deyish bilan kifoyalanadi⁸. Ba’zi boshlovchilar esa salomga alik olib, yana unga «Assalomu alaykum» demaganingiz uchun o‘pkalanib ham qo‘yishadi. Yana bizda urfga kirmagan holatlardan biri yoshi kichik insonga salom bersangiz, u alik olishga xijolat tortadi-da, yana sizga salom beradi. Mana shu holatning fiqhiy yechimi qanday bo‘ladi?

Janob Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam Madinai Munavvaraga borganlarida shahar ahli u zotdan so‘radilar: «Yo Rasululloh, bizning shahar aholisida o‘zaro muhabbat yo‘q. Doimo urushlar bo‘lib turadi. Nima qilsak o‘nglanamiz?». Shunda Rasuli akram s.a.v. ikki kalimadan iborat tinchlik kalitini madinaliklarga topshirdilar va «Orangizda salomni oshkor qiling» deb ta‘lim berdilar. «Tarixi Tabariy»da yozilishicha, Madinai munavvarada salom yoyilgandan bir yil o‘tib bironta ham urushgan odam qolmadi.

Salom berish sunnat bo‘lsa, unga alik olish farzdir. «Niso» surasining 86-oyatida Alloh taolo marhamat qiladi: «Qachon sizlarga biron ibora bilan salom berilsa, sizlar undan chiroyliroq qilib alik olinglar yoki (hech bo‘lmasa) o‘sha iborani qaytaringlar. Albatta Alloh hamma narsani hisobga olguvchi bo‘lgan zotdir».

«Assalomu alaykum» deb beriladigan salom ming yillar davomida qonimizga singgan ham islomiy, ham milliy qadriyatlarimizdandir. Rasululloh sallolohu alayhi va sallamdan so‘radilar: «Qaysi xislatlar islomda eng yaxshidir?». Aytidilar: «Ochlarga taom bermog‘ing va tanigan tanimaganingga salom bermog‘ing».

Shuningdek Rasuli akram s.a.v. salomni avval boshlagan insonni maqtadilar⁹.

Buxoriydan keltirilgan rivoyatda kichiklar kattalarga salom berishi sunnatligi ham bayon qilingani uchun xalqimizda shu holat odob bo‘lib qolgan. Ammo kattalar ham avval salom bersalar savob bo‘ladi. Sunnatga muvofiq xayrlashayotganda ham salom beriladi. Bizda ko‘pincha bu sunnat amal unutiladi.

«Assalomu alaykum» (Sizga tinchlik, Allohning salomini tilayman) degan salomga «Va alaykum assalom» (Sizga ham Allohning salomi bo‘lsin) deb javob berish yoki Rasululloh s.a.v. ta‘lim berganlaridek, «Va alaykum assalom va rahmatulloh», «Va alaykum assalom va rahmatullohi va barokatuh» deb alik olish sunnatga muvofiqdir. Lekin ba’zi ulamolar «Assalomu alaykum»ga «Assalomu alaykum» deb javob bersa bo‘ladi, deyishgan. Chunki ikkinchi kishining javobida sizga ham Allohning salomi bo‘lsin, degan niyat bor edi. Lekin eng afzali «Va alaykum assalom» deyishlikdir.

⁸ Mansurov A. muharrirligi ostida. Tinchlik va osoyishtalik-oliy ne‘mat. Toshkent: Movarounnahr. 2013-144

⁹ Anvar qori Tursunov bilan suhbatdan

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yhati:

Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev.Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 25 b.

Ilmiy asarlar va risolalar:

2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. Toshkent. Hilol nashr. 2012.-456 b.

3. Mansurov A. muharrirligi ostida. Tinchlik va osoyishtalik-oliy ne'mat. Toshkent: Movarounnahr. 2013-144 b.

4. O'zbekiston Respublikasi entsiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2006. – 712 b.

5. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Sahih al-Buxoriy: J II. – Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2008. – 432 b.

6. Mansurov A. muharrirligi ostida. Tinchlik va osoyishtalik-oliy ne'mat.Toshkent: Movarounnahr. 2013-255 b.

7. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Iymon. –Toshkent: Sharq nashriyoti, 2008. – 256 b.

8. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2008. – J.III. – 552 b.

9. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. 13-qism. – Toshkent. Sharq, 2005. – 420 b.

10. “Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari” o‘quv kursi dasturi (oliy o‘quv yurtlari uchun). – T., 2004. – 10 b.

11. Mo‘minov A., Yo‘ldoshxo‘jayev H., Rahimjonov D., Komilov M., Abdusattorov A., Oripov A. Dinshunoslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. – T.: Mehnat, 2004. – 295 b.

12. Mirzayev A. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tasdiqlagan. – T.: Toshkent davlat texnika universiteti, 2000. – 328 b.

13. O‘zbekiston: islom obidalari. / Fotoalbom o‘zbek, ingliz va arab tillarida. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2002. – 263 b.

14. Shorahmetov Sh. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. – T.: Adolat, 2001. – 507 b.

15. Islom niqobi ostidagi ekstremistik va terrorchi uyushmalar / Tuzuvchilar: K.Shermuhamedov va boshqalar. O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Ilmiy

tadqiqotlar va innovatsion loyihalar markazi. – Toshkent: Movarounnahr, 2018. – 120 b.

16. Islom va hozirgi zamon / O‘quv qo‘llanma. Mualliflar jamoasi. Mas’ul muharrir Sh.Yovqochev. – T.: “Toshkent islom universiyeti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – 207 b.

17. Rajabova M. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash muammolari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – 400 b.

18. Aydarbek Tulepov. Internetdagi tahdidlardan himoya – Toshkent: Movarounnahr, 2015. – B. 140.

Xorijiy adabiyotlar:

1. Nureddin Yildiz Internet fihi: Istanbul. – 2018.
2. Mehmet Yildiz Bu Kitabi Sakin Okuma: Istanbul. – 2021.

Internet saytlar

1. www.muslim.uz
2. www.muslimaat.uz
3. www.sammuslim.uz
4. www.kun.uz
5. www.albayan.ae
6. www.aljazeera.net
7. <http://old.natlib.uz:8101/uz/article/1869/>